# PEDAGOGIKA FANLARINI TADQIQ ETISHNING ISTIQBOLLARI: QARASHLAR VA NAZARIYALAR

**Xakimov Mirkomil Shuxratjon o‘g‘li**
Farg‘ona Politexnika Instituti Muhandislik kommunikatsiya tizimlari qurilishi va montaji (turlari bo‘yicha) mutaxassisligining 1- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika tushunchasi, pedagogika fanlarini tadqiq etishning istiqbollari haqida bayon etiladi. Bu haqida qarashlar va nazariyalar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**: pedagogika, shaxs kamoloti, didaktika, tendensiyalar, pedagogik faoliyat, Avesto.

O‘zbekiston sharoitida pedagogik innovatsiyalar asossan pedagogik tizmini takomilashtirish, shu asosda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan.Shu boisdan pedagogika fanlarini tadqiq etish bo‘yicha bir qator istiqbolli rejalar, qarashlar va nazariyalar yaratilmoqda. Yangi O‘zbekiston jamiyatida bugungi pedagogika tizimida ham bir qancha yangiliklar, rivojlanishlar yuz berdi. Tizimli innovatsiyalar pedagogika fanlarini tadqiq etish uchun istiqbolli rejalardan hisoblanadi. Tizimli innovatsiyalar-bu muayyan muammo doirasidan kelib chiqadigan, aniq maqsad, vazifalariga ega innovatsiyalardir.Pedagogika fanlarini tadqiq etishning vazifalari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- Milliy pedagogika sifatida tarkib topishi;
- Byurokratizm rasmiyatchilik illatlaridan qutulish,jahon fanida yuqori darajaga ko‘tarilishi;
- Milliy mafkur, kadrlar tayyorlash Milliy modeli, bozor iqtisodi talablari va jahon fani tajribalari asosida o‘z metodologiyasi va yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish;
- Pedagogik investitsiyani rivojlantirish;
- Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish;
- Jahonda raqobatbardosh loyaihalarni ishlab chiqish;

Bunday vazifalar esa o‘z navbatida pedagogika fanlarini chuqur tadqiq etish uchun yuqori ta’lim sifatini oshiradi. Eng qadimgi zamonlardan beri to hozirgi kungacha bo‘lgan pedagogika tariximizni chuqur o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz merosini bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish, xalq asrlarosha omon etib kelayotgan pedagogikasi, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar asosida yaratilgan darsliklar, qo‘llanmalar yaratish kabi qarashlar pedagogika fanini yuksalishi uchun

muhim omillardan hisoblanadi. Ma’lumki, umuminsoniyat tarixida Amir Temur asos solgan saltanat davrida ijtimoiy hayotda yuksalish,ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlangan. Bu davrda yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Bahouddun Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daholar jamiyat tarixi va jahon madaniyati rivojiga benazir hissalarini qo‘shganlar.Bu buyuk mutafakkirlar turli fanlarga oid yaratgan asarlarida ma’naviy–madaniy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqqanlar.Ular asrlar davomida ta’lim-tarbiya sohasida ajdodlarimiz orttirgan tajribalarning kuchli qudratga ega ekanligini va xalqchilligini o‘z asarlarida ifodalaganlar. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli rahbarlari Muhammadxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar madaniyatni rivojlantirish uchun ma’rifatparvarlikka asoslanish, ta’limni isloh qilish zarurligi g‘oyasini olg‘a surib, Turkistonda ijtimoiy ong, pedagogik qarashlar taraqqiyotini boshlab berganlar.

Milliy pedagogika tariximizni, umumbashariy pedagogika taraqqiyoti rivojiga benazir hissa qo‘shgan buyuk alloma olim-u shoirlarimizning ta’limotlari, g‘oyalarini har tomonlama o‘rganish ham mustaqil fikrlovchi, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni shakllantirish va yetishtirishda g‘oyat muhimdir. Pedagogikada ta’lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o‘rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo‘limlar mavjud. O‘qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e’tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma’naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog‘i o‘z ichiga oladi.

Pedagogika tarixi inson faoliyatining eng qadimgi turi sanaladi. U odam bilan birga paydo bo‘lgan va odamning odamligini, uning oila, jamoa hamda jamiyat bo‘lib yashashini ta’minlab turgan fan va amaliyotdir. Insoniyat mavjud tajribalarni o‘rganish va boshqalarga o‘rgatishni yo‘lga qo‘ya boshlagan vaqtdan, ya’ni pedagogika paydo bo‘lganidan buyon hamda shu tufayligina mavjuddir. Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo‘la boshlashi bilan pedagogika ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta’lim va tarbiyaga doir qarashlar tizimi shakllandi. O‘zbek pedagogikasi juda qadim tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ildizlari Avesto, O‘rxun-Enasoy bitiklariga, Selung‘ur madaniyatiga borib taqaladi. Avestodagi ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal haqidagi, kishilarga ko‘ngil ma’rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi hisoblanadi. Davrlar o‘tishi bilan esa zamonaviy pedagogika uchun bu qarashlar dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqimizning asrlarosha oshib kelayotgan mentaliteti, milliy mafkura, bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati talablari asosida mustaqillikni mustahkamlash, ma’naviy salohiyatni oshirish, har bir insonni, yosh avlodni XXI asr sharoitida baxtli–saodatli yashashga tayyorlash ham pedagogika fani uchun tadqiq manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini kadrlash tayyorlash Milliy modeli, jahon andazalari asosida takomillashtirish. Pedagogik texnologiya bilan ta’minlash qonuniyatlari zamonaviy pedagogika uchun ulkan yutuqlarni keltirib chiqaradi. Eng muhim pedagogika fani uchun istiqbolli rejalardan yana biri-komil inson-barkamol shaxsning hozirgi davr mezonlariga, sifatlariga javob beraoladigan, yetuk insonparvarlik g‘oyalarini rivojlantiraoladigan kadrlarni yaratishdir.

Yangi O‘zbekiston qurayotgan jamiyat rivojida pedagogika fanlarini tadqiq etishning istiqbolli rejalariga misol sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

- Tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish;
- Sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo‘llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insonparvarlashtirish;
- Kasbga yo‘llash ta’lim-tarbiyda ustuvorligini, har bir kasb shaxsining modelini, kasbnomalarini ishlab chiqish, boqimandalik illatidan qutilish, yoshlarni hayotga, mehnatga tayyorlash, mehnatni ijtimoiy zaruriyatga aylantirish metodikasini takomillashtirish;
- Milliy mafkura, milliy g‘oyani har bir ijtimoiy guruhga singdirish, yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirish metodikasini yaratish.

Bugun o‘quv muassasalari mustaqilligi va tashabbuskorligini ta’minlash mexanizmi ishlab chiqildi. O‘quvchilar bilimni nazorat qilish va o‘z-o‘zini o‘zlashtirish darajasini tekshirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, reyting tizimini keng ko‘lamda joriy etish bo‘yicha bir qator yangi qarorlar, o‘zgartirishlar, qonunlar qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanlarini tadqiq etishning istiqbolli rejalari bugungi Yangi O‘zbekiston jamiyati va kelajagi uchun keng imkoniyatlar eshigi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2011.

2.X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi.Toshkent-2008.

3.O‘.M.Asqarova, M.Xayiyboyev, M.S.Nishonov. Pedagogika.Toshkent-Talqin: 2008.